# JAMIYATDA GENDER TENGLIGI NIMA UCHUN KERAK?

**Shoxsanam Xodjaniyazova Ergash qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, 2- kurs, 3GIQ-22-guruh, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada jamiyat hayotimizda gender tenglik nima uchun kerakligi, o'zi gender tengligi nima ekanligi,butun dunyoda va davlatlar miqyosidagi gender tenglik, O'zbekiston Respublikasidagi gender tenglik munosabatlari haqida bayon etilgan bo'lib, mavzu yuzasidan tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit So'zlar** *Gender tenglik, davlatlar, Afg'oniston, AQSH, Yevropa davlatlari,*

## KIRISH VA DOLZARBLIGI

Gender tenglik deganda, jamiyat hayotida erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarida teng huquqlarga erishish tushiniladi. Bizga qadimdan ma'lumki jamiyat hayotida, asosan erkaklarning mav'qei kuchli bo'lgan, sababi erkak kishining ro'li katta bo'lagan. Oziq-ovqat topishda, oila a'zolarni himoya qilishda va boshqa ko'plab ishlarni bajarishda erkak kishining ro'li katta bo'lgan. Keyinchalik zamonlar va davrlar o'tishi, kishilar hayotining o'zgarib, ong salohiyatining oshib borishi natijasida ayollarning ro'li va qadr-qimmati ham oshib bordi. Bu eng avvalo Yevropa davlatlarda yaqqol ko'rindi. Xo'sh umuman gender tenglik, jamiyat hayotida gender tenglikka erishish o'zi nima uchun kerak -Jamiyat hayotida gender tenglikka erishgan mamlakatda rivojlanish, tenglik, aholi qatlamining teng va adolatli yashashiga erishish mumkin. Gender tenglik munosabatlarini hayotning barcha jabhalarida ko'rishimiz mumkin siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida,qarorlar qabul qilishda erkak va ayollarning bir hil, teng ishtiroki va boshqa ko'plab sohalarda ko'rish mumkin.

XALQARO MIQYOSDAGI GENDER TENGLIK Hususan gender

tenglik masalasiga xalqaro miqyosda qaraydigan bo'lsak o'zimiz O'zekiston Respublikasida ham bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi, asosan bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi. 2022-yil 8-martda Xalqaro xotin qizlar kunida UNISEF ayollarni gender tengligi bo'yicha masalalarga katta e'tibor qaratdi. Bugungi kunda O'zbekiston hukumati ayollar va qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish borasida juda ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Bulardan, davlatimiz rahbarlari tomonidan qator islohotlarni misol qilishimiz mumkin. Ayniqsa, "Xotin-qizlarni tazyiq va

zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, konferensiya, videorolik, Oʻzbekiston Xotin- qizlar qoʻmitasi qoshidagi yuridik klinika, ijtimoiy tarmoqlar kabi turli formatlarda ayollar muammolari toʻgʻrisida xabardorlikni oshirish boʻyicha koʻplab tadbirlar kun tartibidan joy olgan. Bu borada "Taraqqiyot strategiyasi'' markazi va boshqa nodavlat tashkilotlar bilan ham faol hamkorlikda ish olib borilmoqda. Xalqaro miqyosdagi gender tenglikda Afg'onistonga nazar tashlaydigan bo'lsak Nazila Jamshidning ro'li beqiyosdir. U o'z davlatida ayol va qizlarning erkinliklari uchun kurashib kelgan. Hattoki hozirgi davrlargacha Afg'oniston hukumatida ayol va qizlarning o'qishi yoki boshqa jabhalarda ko'rishimiz mumkin. Men G'arbiy Afg'onistonning Hirot shahridagi kichik bir qishloqda yashaganman va bu voqealarning barchasini televizordan tomosha qilganimni va taqiqlarni buzishga va ijtimoiy me'yorlarni o'zgartirishga intilayotgan ayollarga qanday qo'shilishni xohlaganimni eslayman. Doktor Sakeena Yoqubi singari ayollar huquqlari bo'yicha chempionlarning istiqbolli va ilhomlantiruvchi ovozlarini tinglash va oilamdagi ayollarga nisbatan tajovuzkor nishonga olingan ayollarni kuzatish meni Afg'onistonda ayollarning huquqlari va gender tengligini ta'minlash bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarda ishlashga ilhomlantirdi-deydi Jamshidiy. .

Joriy yil 30-avgustda Oliy Majlis senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi raisi M.Qodirxonova mamlakatimizga tashrif buyurgan AQSh Davlat departamentining Ayollar ishlari boshqarmasi rejalashtirish boʻyicha direktori Kristin Borganyen bilan uchrashdi. Ular muzokaralar mobaynida ko'plab kelishuvlarga erishishdi. Kristin Borganiya O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarni yaxshi baholadi. Muloqot davomida mehmon mamlakatimizda gender tenglikni, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan batafsil tanishtirildi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotida gender tengliylik deganda faqa ayol-qizlarning emas balki erkak va ayollarning teng

huquqiyligi tushiniladi. Ammo mamlakatlar va davlatlardagi gender tengliylik deganda eng avvalo ayol va qizlarning mavqe’yining oshib borishini tushinishimiz mumkin.

Hozirgi davrda O’zbekistonda ayol va qizlarga berilayotgan e’tibor va imkoniyatlarga nazar tashlaydigan bo’lsak, ayol va qizlarning o’rni erkaklarnikidan ham baland desak mubolag’a bo’lmaydi. Buni ayol va qizlarga foizsiz ta’lim kreditlarining berilishi, ayollarga berilayotgan e’tiborning misli ko’rilayotgan yutuqlariga erishilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1.Gender tenglik bo’yicha butunjahon statistikasi 2.Lex.uz sayti orqali internet ma’lumotlari 3.uz.m wikipedia.org ma’lumotlari 4.Ensikilopediya ma’lumotlari .